

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

"TASDIQLAYMAN"

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari

K. Karimov

2023-yil dekabr



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**TADBIRKORLIK VA BIZNES ASOSLARI FANI O'QITUVCHILARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSINING
O'QUV DASTURI**

Toshkent - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

*Tadbirkorlik va biznes asoslari fani o‘qituvchilari malaka oshirish kursining o‘quv
dasturi Professional ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy kengashining 2023-yil
____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan*

Tuzuvchilar:

Institut boshqarma boshlig‘i **A.Xayitov**,
P.f.d. (DSc), dotsent **D.Raxmatullayeva**
Institut bosh mutaxassislari **F.Yusupov**,
A.Zakirov, **N.Charshanbiyev**.

Taqrizchi:

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası mudiri
i.f.n., dotsent **B.N.Mamayev**

Toshkent-2023

KIRISH

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 106-son, 2023-yil 7-dekabrdagi "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 648-son qarorlari ijrosini ta'minlash.

Malaka oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan professional ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, davlat ta'lim talablar asosida Tadbirkorlik va biznes asoslari fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini kredit-modullari orqali muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Malaka oshirish kursning maqsadi va vazifalari

Tadbirkorlik va biznes asoslari fani o'qituvchilari uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish kursining maqsadi – Pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, interfaol va zamonaviy texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash va ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy- me'yoriy asoslarini singdirish;

o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari, texnologiyalari va ishlanmalarini faol qo'llash;

pedagoglarning faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash malakalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Professional ta'limga oid davlat siyosati masalalari", "Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish", "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik", "O'z-o'zini

rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari”, “Pedagogik mas’uliyat va moslashuvchanlik”, “Fandagi yangiliklar va fanni o’qitishning dolzarb masalalari”, “O’quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari” bloklari bo’yicha tinglovchilarning bilim, ko’nikma, malakalariga qo’yiladigan talablar malaka oshirish kursining mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo’yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

O’quv modullari bo’yicha tinglovchilar quydagi kompetensiyalarga – bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining mazmun-mohiyatini;

- tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda amalga oshirilayotgan islohotlar va meyoriy-huquqiy hujjatlarni;

- pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish yo'llarini;

- kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini;

- ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslaridan foydalanishni;

- ta'lim resurslarini raqamlashtirish va media ta'limning zamonaviy shakllarini;

- kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va pedagogik mahoratni rivojlantirish usul va vositalarini;

- pedagoglarda mustaqil ta'lim orqali tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishni;

- interfaol usullarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalarni;

- STEAM va STRAM ta'lim xususiyatlarini;

- o'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va baholash usullarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish;

- kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish;

- ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslaridan foydalanish;

- ta'lim resurslarini raqamlashtirish va media ta'limning zamonaviy shakllaridan foydalanish va amaliyotga joriy etish;

- kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va pedagogik mahoratni rivojlantirish;

- pedagoglarda mustaqil ta'lim orqali tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish;

- o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari, texnologiyalari va ishlanmalarini faol qo'llash;

- malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish bo'yicha *ko'nikma va malakalarga* ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi bir oy 24 kredit 144 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlari bo'yicha kredit ballarini to'plagan va modullarni to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Tadbirkorlik va biznes asoslari fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. PROFESSIONAL TA'LIMGA OID DAVLAT SIYOSATI MASALALARI

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya yoshlar bilim olishining qonuniy asosi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mazmun mohiyati. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi: maqsadlar va kutilayotgan natijalar.

1.2. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda amalga oshirilayotgan islohotlar va meyoriy-huquqiy hujjatlar

O'z o'zini bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning meyoriy-huquqiy asoslari. Iqtisodiyotni taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirishning zarurligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi». Hududlarda qishloq xo'jaligi va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar va ularning mazmuni. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlari: "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks", "Yoshlar 1+1", «Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» dasturi, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturi, "Eng yaxshi innovatsion tadbirkorlik" dasturi va boshqalar.

II. PEDAGOGNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

2.1. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish yo'llari

Pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Kasbiy pedagogic tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalari mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion kreativ yondashuvlar. Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili. O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va hokazo).

2.2. Kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar. Inson resurslari salohiyatini rivojlantirish. Kasbiy-shaxsiy kontseptsianing rivojlanish xususiyatlari, o'qituvchilarning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish. Kadrlar malakasini oshirish usullari va ularning salohiyati. Kreativ kompetensiya va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Refleksiv-akmeologik texnologiyalar va ularning mezonlari.

III. AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA MEDIASAVODXONLIK

3.1. Ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslari

Internet tarmog'idagi kasbiy faoliyatga oid portallardagi dasturiy vositalardan ta'lim jarayonlarida foydalanish ahamiyati. O'quv metodik ta'minotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida yaratish. O'quv-uslubiy ma'lumotlar bazalarini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar. Ta'lim muassasalari xodimlarining ishlanmalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali foydalanish, Elektron ta'lim resurslarini yaratish.

3.2. Ta'lim resurslarini raqamlashtirish va media ta'lim

Ta'lim resurslarini raqamlashtirish va media ta'lim xususiyati. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Axborotlashtirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy asoslar. Avtomatlashtirilgan tizimlar, boshqaruv va kompyuter texnologiyalari. Elektron portfolio tizimidan foydalanish yo'llari. Ta'lim axborotini saqlash usullari telekommunikatsiyalardan foydalanadigan ta'lim muassasasining maydoni; axborot dasturiy paketlari, axborot platformalari va ma'lumotlar bazalari, global Internetdan faol foydalanish. Data Science va Suniy Intlekt. Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish.

IV. O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH MASALALARI

4.1. Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va pedagogik mahoratni rivojlantirish usul va vositalari

Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va pedagogik mahoratni rivojlantirish. Kasbiy pedagogik mahoratni tarkib toptirish va takomillashtirish. Kasb ta'limi uslubiyati. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. O'qituvchilarning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish usullari. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.

V. PEDAGOGIK MAS'ULIYAT VA MOSLASHUVCHANLIK

5.1. Pedagoglarda mustaqil ta'lim orqali tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish

O'z o'zini yo'naltiruvchi ta'lim. Masofaviy ta'lim. Mustaqil ta'limni o'quv jarayonlarida qo'llash. "Blended learning" texnologiyasi. "Flipped class" texnologiyasi. Mustaqil ta'lim orqali tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan masofaviy ta'lim shallari. Modulli o'qitish texnologiyasi. Tadbirkorlik fani o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish vositalari va metodlari.

VI. FANDAGI YANGILIKLAR VA FANNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

6.1. Interfaol usullarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalari

Interfaol usullarda dars mashg'ulotlarini olib borishning umumiy asoslari. O'qitishning zamonaviy metodlari. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni. Fanni o'qitishda interfaol usullardan to'g'ri foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Interfaol usullarni qo'llashda xorij tajribasidan foydalanish.

6.2. "Jamg'arma" o'yini simulyatsiyasi

"Jamg'arma" o'yini simulyatsiyasiga kirish. Shaxs va oila uchun moliyaviy zahira (moliyaviy yostiqchanning qiymati). Uy xo'jaligini yuritish bo'yicha xarajatlarni aniqlash. Jamg'arishning maqsadi. Jamg'arma kiritishning sehrli uchburchagi. Kredit olish maqsadi. Makroiqtisodiyot. Inflyatsiya va uning ta'siri. Favqulodda vaziyatlar uchun pul tejab qo'yishning ahamiyati. Xavf-xatarlarni baholash. Ehtiyot choralari. Moliyaviy institutlar (tashkilotlar). Hayot sifati darajasi.

6.3. STEAM va STRAM ta'lim xususiyatlari

STEAM-ta'lim xususiyatlari. Ta'limga STEAM yondashuv va kreativlik O'quvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish. STRAM ta'lim xususiyatlari. Ta'lim muassasasi o'quvchisining kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. STEAM va STRAM ta'lim texnologiyalarini ommalashtirish.

VII. O'QUVCHILAR KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH USULLARI VA VOSITALARI

7.1. O'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va baholash usullari

Kompetensiya va tadbirkorlik kompetensiyasi. Tadbirkorlik kompetensiyani shakllantirish yo'llari (mashqlar, topshiriqlar orqali). Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning to'rt texnologiyasi. Tadbirkorlik kompetensiyasini baholash va uning usullari (mashq va topshiriqlar orqali).

7.2. "Mikro biznes" o'yini simulyatsiyasi

"Mikro biznes" o'yini simulyatsiyasiga kirish. Zamonaviy tadbirkorlikning mazmuni va mohiyati. Voqealar kontekstida qarorlar qabul qilish. Sarmoya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish. Tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Bozor iqtisodiyotida marketing. Balans, foyda va zarar hisobi, naqd pul oqimi hisobi va buxgalteriya hisobi. Mahsulotlar va xizmatlarni reklama qilish. Sotuvni rejalashtirish. Harajatlar va sarmoyalar. Reklama.

7.3. Ehtiyojga asoslangan modullar

Ehtiyojga asoslangan modullar ishchi o'quv rejasida aks ettirilib, tinglovchilar tanlovi asosida tashkil etiladi. Tinglovchilar tanlagan modullarga 2 kreditdan oshib ketmagan holatda soatlar taqsimlanadi.

VIII. TINGLOVCHILAR BILIMINI BAHOLASH

8.1. Malaka oshirish kursida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori o'zlashtirsa, modul uchun ajratilgan kredit beriladi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi. Tinglovchilar bilimni baholash har bir blok va uning modullarining mazmunidan testlar shakllantiriladi va belgilangan talablar bo'yicha amalga oshiriladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni.
7. 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
8. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.
12. 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qaror.
13. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 106-son qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 648-son qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quv asbob-

uskunolari va anjomlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2017-yil 2-iyundagi 345-son qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 2017-yilning 12-yanvaridagi PQ-3271-son qarori.

Asosiy adabiyotlar

18. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperastiyasi. – Jizzax, 2004.

19. Bekmurodov A.Sh., Sattorov S., To'raev J., Soliev K., Ro'ziev S. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. 3-qism. –T.: TDIU, 2005.

20. Qosimova M.S., Xodiev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2003.

21. Qosimova M.S., Ergashxo'jaeva Sh.J. Marketing. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2004.

22. Samadov A.N. «Kichik biznesni boshqarish» fanidan ma'ruzalar matni. –T.: TDIU, 2005.

23. Yusupov M.A., Ergashxo'jaeva Sh.J. «Tadbirkorlik asoslari» fanidan ma'ruzalar matni. –T.: TDIU, 2005.

24. O'zbekiston Respublikasining 2015 yildagi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha yakunlari. – T.: Statistika davlat qo'mitasi, 2015.

25. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Lex.uz, 2016 yil 5 oktyabr.

26. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistik qo'mitasi. Toshkent-2017 yil.

27. Shodmonov Sh.Sh. Alimov R.X., Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya" 2007.;

28. S.Salayev, N.Fayzullayev, J.Atayev, D.Saidov, M.Gulmonov «Tadbirkorlik asoslari». T.: 2012y

29. M.P.Boltaboyev, M.S.Kosimova, B.K.Goyibnazarov, Sh.J.Yergashxodjayeva, A.N.Samadov, Sh.I.Otajonov "Kichik biznes va tadbirkorlik". "Noshir". T.: 2011y

30. X.G'oziyev, Yu.Shokirova, M. Ashurov. "Kichik biznes va tadbirkorlik"fanidan Yangi pedagogik texnologiya asosida amaliy mashg'ulotlar bajarishga doir uslubiy qo'llanma. Farg'ona – 2010.

31. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Toshkent., 2011 yil.

32. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi. -Toshkent: Moliya. – 2001.-218b.

33. Quvondiqov Z.O. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari. Monografiya. SamDU nashri 2010 yil

34. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: 2000.; 4.2. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 2010. 1-3 sonlar.

35. Burxanxodjayeva X.V. Tadbirkorlar huquqlarini sud tomonidan himoya qilinishi. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish muammolari./ Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -T.: TDYuI.-2002.

36. Do'stov U.N. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy vositalari (asosi) sifatida-shartnomalar. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish muammolari./ Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -T.: TDYuI.- 2002.

24. Abdullaev A. va b. Kichik biznesni boshqarish. T. 2003.

Internet manbalari:

1. <https://onlinedu.uz/>
2. <http://lex.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.uzedu.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.bimm.uz>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.wikipedia.org>
9. <http://www.oecd.org>

Професионал таълимни ривожлантириш институти
Професионал таълим муассасалари Тадбиркорлик ва бизнес асослари
фани ўқитувчилари малакасини ошириш курсининг намунавий ўқув
дастурига

ТАҚРИЗ

Мазкур дастур малака оширишнинг илғор ва шаффоф ташкилий-хукукий механизмларини тадбиқ этиш йўли билан профессионал таълим тизимида кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг замонавий тамойилларини жорий этиш бўйича белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, давлат таълим талаблар асосида “Тадбиркорлик ва бизнес асослари” фани ўқитувчилари малакасини ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда уларнинг касбий компетентлигини кредит-модуллари орқали мунтазам оширишни назарда тутди.

Дастур мазмуни Професионал таълимга оид давлат сиёсати масалалари, педагогнинг коммуникатив кўникмаларини ривожлантириш, ахборот-коммуникация технологиялари ва медиасаводхонлик, ўз-ўзини ривожлантириш ва узлуксиз касбий ривожланиш масалалари, педагогик мас’улият ва мослашувчанлик, фандаги янгиликлар ва фанни ўқитишнинг долзарб масалалари, ўқувчилар компетенцияларини баҳолаш усуллари ва воситалари, тингловчилар билимини баҳолаш блокларини ўз ичига олган бўлиб, улар бўйича тегишли янги билим, кўникма, малака ва компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилгандир.

Дастур мазмуни доирасида малака ошириш курсининг мақсади таълим муассасаларини бошқариш, таълим муассасаларини бошқаришнинг хукукий, молиявий-иқтисодий масалалари, таълим-тарбия жараёни самарадорлигини ошириш учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларни мунтазам янгилаш, малака талаблари асосида уларнинг бошқарувга оид компетентлигини ривожлантириш кўзда тутилган. Шунингдек, дастурда ўз-ўзини бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартиришда тадбиркорликни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган чоратадбирлар ва уларнинг меъёрий-хукукий асослари, иқтисодиётни тараккий эттириш, камбағалликни қисқартиришнинг зарурлиги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан 2023 йилдаги очик мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси»да белгиланган вазифалар ҳамда ҳудудларда қишлоқ хўжалиги ва фермер хўжаликларини ривожлантириш бўйича ва бошқа меъёрий хукукий ҳужжатлар ва уларнинг мазмуни баён этилган.

Мазкур ўқув дастури дастурларни ишлаб чиқиш талаблари асосида ишлаб чиқилган ва ушбу дастурни амалиётга жорий этиш мумкин деб ҳисоблайман.

Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти
Тармоқлар иқтисодиёти кафедраси
мудир, и.ф.н.,

доц. Мамаев Б.Н.